



SarioSiyo

2025-yil – Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili

11 aprel 2025 yil. Juma № 14 (8194)

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

(Gazeta 1932 yildan «SarioSiyo haqiqati» nomi bilan chiqa boshlagan)

DOLZARB MAVZUDAGI SESSIYA

Xalq deputatlari Sariosiyo tuman Kengashining yettinchi chaqiriq oltinchi sessiyasi hokimlikning majlislar zalida bo'lib o'tdi. Sessiya ishini Kengash raisi A.H.Donaev olib bordi. Deputatlar tomonidan tasdiqlangan kun tartibiga ko'ra, ko'pgina masalalar ko'rib chiqildi va muhokama qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 13 dekabrda "Surxondaryo viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-438-sonli qarori ijrosi yuzasidan tuman hokimi A.Donaevning hisoboti, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi "Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5633-sonli Farmoniga asosan tumanidagi tashkilot va muassasa rahbarlari faoliyati hamda murojaatlar bilan ishlash holati to'g'risida Sariosiyo tuman Xalq qabulxonasi mudiri O.Jo'rabekovning axboroti, Mahalliy byudjet daromadlari bajarilishi holati, qo'shimcha rezervlarni aniqlash bo'yicha qilingan ishlar, shuningdek, soliq tushumlarini o'z vaqtida undirilishi, prognoz ko'rsatkichlarining bajarilish holati va boshqa majburiy to'lovlar kesimida byudjetga hisoblangan va amalda to'langanligi hamda soliq qarzdorligi bo'yicha 2025 yilning 1-choragi davomida amalga oshirilgan ishlar

yuzasidan tuman soliq inspeksiyasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari J.Hakimovning hisoboti eshitildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025 yil 24 fevraldagi "Xalq deputatlari viloyat (tuman, shahar) Kengashlari kotibiyatlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi KQ-101-V-sonli qarorining ijrosi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025 yil 26 fevraldagi "Xalq



deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari huzurida Yoshlar maslahat guruhini tashkil qilish to'g'risida"gi KQ-102-V-sonli qarorining ijrosi hamda Kengashning doimiy komissiyalarida muhokamadan o'tgan masalalar eshitildi. Sariosiyo tumanida "Ochiq byudjet" axborot

portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarda "g'olib" takliflarni tanlab olish va ularga mablag' ajratish to'g'risidagi masala ham hammaning diqqat markazida bo'ldi. Sessiya ishida deputatlardan S.Asadov, A.Safarovlar faollik ko'rsatishdi. Sessiya muhim mavzudagi masalalar yuzasidan tegishli qarorlarni qabul qildi.

Mas'udjon ASHUROV,
Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyat mudiri



"Yuksalish" harakati Surxondaryo viloyati hududiy bo'linmasi rahbari Gulmira Amirova moderatorligida viloyatda "O'zbekiston-2030" strategiyasini qo'llab-quvvatlovchi "Jamoatchilik guruhi" a'zolari ishtirokida Jamoatchilik eshituvi o'tkazildi. Ta'kidlash kerakki, "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 16-

boshqarmasi boshlig'ining onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha o'rinbosari Muborak Qurbonovning hisoboti tinglandi. Kun tartibidagi ikkinchi eshituvda Davlat dasturining 60-maqsadi doirasida ko'p xonadonli uy-joylarni boshqarish tizimini rivojlantirish borasidagi ishlarga e'tibor qaratildi. Mazkur masala yuzasidan viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i

JAMOATCHILIK ESHITUVI



maqsadi onalar va bolalar o'limini qisqartirish, sog'lom bolalikni ta'minlashga qaratilgan.

Ushbu ustuvor maqsadga erishish yo'lida 1-ilova 40-bandi bilan bolalarning sog'lom ovqatlanishini ta'minlash orqali ratsional o'sishi va rivojlanishi, aqlan barkamol bo'lib shakllanishini ta'minlash belgilangan. Shunga ko'ra, viloyatda 6-23 oylik bo'lgan 243 ming nafar bolani mikronutrient kukuni bilan, 265 ming nafar 2-10 yoshdagi bolalarni gelmintoz profilaktikasi bo'yicha maxsus preparatlar bilan bepul ta'minlash rejalashtirilgan. Shuningdek, mazkur maxsus preparatlarning yaroqlilik muddati va sifat sertifikatlarini ularni qabul qiluvchi bolalar ota-onalariga havola etib borish ko'zda tutilgan.

Tadbirda dastlab yuqoridagi masalalar yuzasidan viloyat sog'liqni saqlash

o'rinbosari Nurisлом To'raqulov hisobot berar ekan, shunday dedi:

-Bugungi kunda viloyatda 43 128 xonadondan iborat 1 693 ta ko'p qavatli uy mavjud bo'lib, ushbu uylarga 33 ta boshqaruvchi tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatib kelinmoqda. 2023 yili dasturga muvofiq 144 ta ko'p qavatli uyda ta'mirlash ishlari olib borilgan bo'lsa, 2024 yilda bunday uylardan 117 tasi ta'mirlandi.

Shundan so'ng jamoatchilik guruhi vakillari yuqoridagi sohalar bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va yutuqlarni e'tirof etgan holda mavjud muammolarni bartaraf qilishga qaratilgan o'z taklif hamda tavsiyalarni berishdi.

Jamshid ALIEV,
"Yuksalish" harakati Surxondaryo viloyati hududiy bo'linmasi bosh mutaxassisi

Kam ta'minlangan oilalarga "svet" va gaz uchun kompensatsiya beriladi

Kam ta'minlangan oilalarga elektr va gaz to'lovlarida davlat kompensatsiyasi joriy etiladi. Bu 2 aprel kuni qabul qilingan "Yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishda ehtiyojmand aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorida belgilangan. Qarorga ko'ra, 2025 yil 1 maydan 2027-yil 1-aprelga qadar "Ijtimoiy himoya yag'ona reestri" axborot tizimi orqali bolalar nafaqasi va moddiy yordam oluvchi hamda Kambag'al oilalar reestriga kiritilgan, shuningdek, Reestrlarga kiritilmagan, biroq moddiy ahvoli bo'yicha kam ta'minlangan oilalar mezonlariga to'g'ri keluvchi, oiladagi jon boshiga daromadi minimal iste'mol xarajatlarning 1,5 barobaridan oshmaydigan oilalarga: -elektr energiyasi iste'moli bo'yicha - oyiga bazaviy me'yordan 150 kVt soatgacha; -tabiiy gaz iste'moli bo'yicha - isitish mavsumida oyiga bazaviy me'yordan 250 kub metrgacha, boshqa davrlarda oyiga bazaviy me'yordan 150 kub metrgacha ortiq foydalanilgan qismi uchun bazaviy me'yor doirasidagi hamda bazaviy me'yordan oshgan narxlar o'rtasidagi farq kompensatsiya qilib beriladi. Shuningdek, isitish mavsumida ehtiyojmand oilalarga 1 million so'm

miqdorida bir martalik yordam beriladi. 2025/2026 yilgi isitish mavsumida aholining ehtiyojmand qatlamini qo'shimcha moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy yilning noyabr oyida quyidagi oilalarga 1 million so'mdan bir martalik moddiy yordam ajratiladi:

-Reestrlarga kiritilgan oilalarga;

-"mahalla yettilligi" xulosasi asosida Reestrlarga kiritilmagan, biroq yordamga muhtoj oilalarga.

Bunda "mahalla yettilligi" tomonidan qo'shimcha ro'yxat shakllantirilishida birinchi navbatda, boquvchisini yo'qotgan oilalar, xonadonda 1 yoki 2 guruh nogironi bo'lgan shaxslardan iborat bo'lgan oilalar, nogironligi bo'lgan bolalarni parvarishlayotgan oilalar, uzoq muddatli davolanishni talab etadigan kasalliklar bilan kasallangan shaxslar yashovchi oilalar, o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi shaxslar hamda yolg'iz yashovchi keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar, uch va undan ortiq oila yashaydigan xonadonlarda hamda gaz ta'minoti bo'lmagan va markazlashtirilgan tartibda isitilmaydigan ko'p qavatli uylarda yashovchi oilalar inobatga olinadi.

Qo'shimcha ravishda shakllantiriladigan ro'yxatdagi oilalar soni Reestrlarga kiritilgan oilalar sonining 40 foizidan oshmasligi lozim.

Kitob - insonning eng yaqin do'sti, maslahatchisi va bilim manbaidir. Kitob fikrlash quroli, xazinalar, tafakkur manbai bo'lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz va mo'tabar hamda muqaddas deb hisoblagan. Shuning uchun kitobga muhabbat, uni qadrlash, o'qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan.

Bugungi texnika rivojlangan davrda kutubxona va kitobdan foydalanayotgan yoshlarni ko'rsak quvonamiz. Ayniqsa, Prezidentimizning bu kabi yoshlarni avtomashina bilan taqdirlayotgani nur ustiga a'lo nur bo'lmoqda. "Yosh kitobxon" tanlovining respublika bosqichi g'oliblari bunga yorqin misoldir.

Kutubxonalarga e'tiborni yanada kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qaror bo'yicha respublikamiz bo'ylab 186 ta kutubxona tashkil etildi. Shu jumladan, Sariosiyo tumanidagi "Yoshlar bog'i" hududida zamonaviy Axborot-kutubxona markazi barpo etildi.

Kutubxonamizda 38 mingdan ortiq kitoblardan 12 mingdan ko'proq elektron kitoblardan mavjud. Bundan tashqari, ma'naviyat maskani hamda o'quv zali, katta hajmdagi LED-monitor va bepul internet bilan ta'minlangan. Zamonaviy kutubxona bir vaqtning o'zida 120 nafardan ortiq kitobxona to'laonli xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega. Zero, bugungi yoshlarimizning kitobga bo'lgan mehrini har

SOHIBQIRON AMIR TEMUR HAQIDA

Amir Temur ibn Amir Tarag'ay 1336 yil 9 aprelda Kesh (hozirgi Shahrisabz) tumanining Xo'ja Ilg'or qishlog'ida dunyoga kelgan. Uning otasi Amir Muhammad Tarag'ay Barlos ulusiga mansub beklardan, bahodir jangchi, ulamoyu fuzaloga ixtosmand, ilm ahliga homiy va ishtiyoqmand kishi bo'lgan.

Amir Temurning turk, arab, fors xalqlari tarixini, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning murakkab jihatlarini yaxshi o'zlashtirganligini ta'kidlaydi.

Amir Temurning har bir harbiy yurishga turk bo'larlik sabab bor edi. Bu sabablar o'z davlatining chegaralarini mustahkamlash, tashqi dushmanlardan



qanday boyliklardan ustun qo'ysak arziydi.

Shahlo NABIYEVA,
Tuman Axborot-kutubxona markazi Axborot-kommunikatsiya va texnologiyalarini raqamlashtirish xizmati rahbari

himoyalani, karvon yo'llarini turli yo'l to'sarlardan tozalash, o'zining siyosiy ta'sirini kengaytirish kabilardan iborat bo'lganligini tarixiy manbalardan bilib olish mumkin. Amir Temur -yorqin xislatlarga ega ekanligi, xotirasi o'tkir, shijoatli va qat'iyatli, bir so'zli, zo'r ruhiy qudrat egasi, salohiyatli inson sifatida ta'riflanadi.

Abdujabbor BOBOJONOV,
38-son Sariosiyo madaniyat markazi badiiy rahbari



Joriy yilning 1 aprelida 1-aloqida harbiylashtirilgan kon qutqaruv vavodi va "Sharg'unko'mir" AJ o'rtasida kelishilgan rejaga asosan maxsus taktik-texnik o'quv mashg'uloti o'tkazildi.

Xususan mashg'ulotda 1-AHKQV shaxsiy va komandirlar tarkibi, "Sharg'unko'mir" AJ bosh muhandisi Sh.J.Surxanov, tog'-kon geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiya Surxondaryo viloyati hududiy bo'limi inspektori Sh.J.Xolikov, Sariosiyo tumani FVB tezkor bo'linmasi boshlig'i katta leytenant R.Abdunazarov hamda "Sharg'unko'mir" AJ aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar xizmati boshlig'i - Fuqaro muhofazasi bo'yicha mas'ul xodimi X.A.Tashkulovlar qatnashdi.

Taktik-texnik mashg'ulotida "Sharg'unko'mir" AJ konlarida yong'in sodir bo'lgan ob'ektda jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatilib hamda toza havoga chiqarilib, tibbiyot xodimlariga topshirildi. Mavjud avariylarni oldini olish to'g'risida chora-tadbirlar amalga oshirildi.

ISTE'MOLCHINING SHIKOYAT QILISH HUQUQI HAQIDA!

Iste'molchilarning shikoyat qilish huquqi—bu iste'molchilarning sifatli bo'lmagan yoki nizolat yuzaga kelgan mahsulotlar va xizmatlar bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun shikoyat qilish huquqidir. Bu huquq, iste'molchilarning o'z manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda, shikoyat qilish huquqi quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Nizolarni hal qilish:

-Agar iste'molchi sotib olgan mahsulot yoki xizmatdan norozilik bildirsa, u sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga shikoyat qilish huquqiga ega.

-Iste'molchi mahsulotda yoki xizmatda xatolik yoki nuqson aniqlagan taqdirda, u mahsulotni qaytarib berish, almashtirish yoki pulni qaytarib olishni talab qilishi mumkin.

2. Shikoyatlarni ko'rib chiqish muddati:

-Iste'molchi shikoyat bilan murojaat qilganidan so'ng, tashkilot o'zining shikoyatni ko'rib chiqish va javob berish muddatiga rioya qilishi kerak. Odatda, bu muddat 15-30 kunni tashkil qiladi, lekin har bir holatga qarab o'zgarishi mumkin.

3. Shikoyatlarni yozma ravishda berish:

-Shikoyatlar odatda yozma tarzda, ya'ni ariza yoki murojaat shaklida berilishi kerak. Bu iste'molchining huquqlarini himoya qilishda yordam beradi, chunki yozma shaklda isbotlar qoladi.

4. Shikoyatni hal qilishda iste'molchining huquqlari:

-Iste'molchi, agar mahsulot yoki xizmatda nuqson aniqlansa, qaytarish, almashtirish yoki zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega.

-Shikoyat qilingan holatda, tashkilot iste'molchiga muammolarni hal qilish uchun muayyan vaqt beradi va ularning huquqlarini hurmat qilish kerak.

5. Shikoyat uchun tashkilotlar:

-Agar sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilot iste'molchining shikoyatini hal qilmasa, iste'molchi o'zining shikoyatini davlat organlariga yoki iste'molchilarning huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlarga (masalan, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat idoralari) taqdim etishi mumkin.

6. Ombudsmanning roli:

-Iste'molchilarning shikoyatlarini ko'rib chiqishda, ayrim davlatlarda iste'molchi ombudsmani yoki tegishli idoralar yordam beradi. Ombudsman iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va ular bilan bog'liq muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

Agar iste'molchi shikoyatini to'g'ri tarzda berib, huquqlarini himoya qilsa, sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi tashkilot unga qonuniy javobgarlikni taqdim etishi kerak.

M.ZARIPOVA,

Sariosiyo tuman iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati raisi



Bo'lajak kadrlarni halollik vaksinasi bilan emlash — davr talabi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 5-mart kuni Korruptsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash va oliy ta'lim muassasalari talabalar o'rtasida korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha targ'ibot tadbirlarini kuchaytirish va korruptsiyaga qarshi murosasizlik muhitini

shakllantirish maqsadida "Adolat" SDP Sariosiyo tuman Kengashi va tuman prokuraturasi hamkorligida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Pedagogika fakultetida targ'ibot tadbiri o'tkazildi.

Tadbirda Sariosiyo tuman prokurorining katta yordamchisi O.Xayitov, "Adolat" SDPdan saylangan xalq deputatlari

Sariosiyo tuman kengashi deputatlari va institut rektor maslahatchisi O'.Normuradovlar ishtiroki edi.

Targ'ibot doirasida korruptsiyaning jamiyatga yetkazadigan zarari va uning salbiy oqibatlari haqida so'z yuritildi.

M.SANGINOV,
"Adolat" SDP Sariosiyo tuman Kengashi raisi



ИСЛОМ ТАЛҚИНИДА–УМУММИЛЛИЙ ЛОЙИХА!

Юртимизда олиб борилаётган кенг кўламли ислохотлар инсон ҳаёт сифати ва фаровонлигини оширишдан иборат бўлиб, бу айни давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланиб улгурди. "Яшил макон" умуммиллий лойиҳаси дастурларида ҳам атроф муҳитни (ҳаво, сув, ер, тупроқ, ер қаъри, биохилма-хиллик, қўриқланадиган табиий ҳудудлар) салбий таъсирлардан сақлаш ва келажақ авлодга бекаму-кўст етказишнинг яна бир ифодасидир.

Ҳозирда барча шаҳар ва қишлоқларда дарахт экиш бўйича кенг кўламли иш олиб борилаётгани таҳсинга сазовор. Шу билан бирга ҳар йили куз ва баҳор ойларида экиладиган дарахтлар парваришига, уларнинг кейинги тақдирига ҳам эътибор қаратилиши лозимдир. Чунки, "Яшил макон" умуммиллий лойиҳаси — бу бир йиллик тadbир эмас". Дарҳақиқат, яшаб турган жойимизни озода сақлаб, биздан кейинги авлоднинг

ҳам муносиб табиий муҳитда яшашлари учун бугун биз табиатга меҳр ва эътибор берсак келажақ авлод ҳам муносиб экологик шароитда яшайди. Бунинг учун биз ер ва сув ресурсларини, экологик тизимни асраш ҳамда дарахт кўчатларини экиб, боғ яратишимиз зарурдир.

Имом Муслимдан шундай ҳадис ривоят қилинади: "Агар мусулмон киши кўчат экса ёки дехқончилик қилса, кейин бирор қуш, инсон ёки ҳайвон мевасидан еса, бунинг учун эккан кишига садақа қилганининг савоби ёзилади". Шукрки, юртимиз Аллоҳ назари тушган заминдир. Сабаби парвардигор олам муқаддас китоби Қуръони каримда шундай марҳамат қилади: "Яхши шаҳар (ери)нинг гиёҳи Роббининг изни билан (униб) чиқаверади. Ёмон (шаҳар)нинг ери эса) факат унумсиз бўлур" (Аъроф, 58). Демакки, юртимиздаги мўл-кўлликнинг, боғ-роғларнинг ободлиги оятда таъкидланганидек,

Парвардигорнинг изни билан ўсиб-унмокда. Бу билан Аллоҳ таоло ер юзини обод қилишлик, умид билан ерга кўчат қадамоқ қадрли эзгу амаллардан бири эканлигига далолат қилмоқда. Ҳадиси шарифда айтилишича, экилган ҳар бир дарахтнинг айтаётган тасбеҳи, ўша дарахтни эккан кишининг номаи аъмолига ёзилади ҳамда унинг мевасидан бошқалар еса ёки соясида ўтирса, эккан кишининг амал дафтарига садақа савоби ёзиб қўйилади. Демак, кўчат ўтказган ва экин эккан кишининг меҳнати ҳеч қачон зое кетмайди. Расулуллоҳ (с.а.в) икки қабр устига хурмо дарахтининг шохини суқиб, унинг айтаётган тасбеҳи туфайли қабр аҳлининг азоби енгиллатилишидан хабар берганлар. Яратган эгам юртимиз аҳлини шу каби эзгу амаллар устида жам қилсин.

М.БАДАЛБОВЕ,
"Ҳўжа Муҳаммад Порсо" жомеъ масжиди имом-хатиби

МАҲАЛЛАЛАРДА ХАВФСИЗ МУҲИТНИ ЯРАТИШ!

2025 йилнинг 8 апрел кuni туманимиздаги "Янги Ўзбекистон" истироҳат боғи ҳудудидаги Маънавият масканида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январь кундаги "2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-1-сонли Қарорининг туман ҳудудидаги маҳаллаларда ижросини таъминлаш мақсадида йиғилиш ўтказилди.

Йиғилишда, «Нуроний» жамғармаси туман бўлими раиси, Халқ депутатлари Сароисий туман Кенгаши депутати, туман ИИБ фахрийлар кенгаши раиси С.Қосимов, туман ИИБ шахсий таркиби ҳамда фахрийлар кенгаши аъзолари иштирок этишди.

Ички ишлар бўлими раҳ-

олдини олиш, криминоген вазияти оғир бўлган қизил тоифа сирасига киририлган ҳар бир маҳаллаларга бириктирилган "маҳалла еттилиги", фаол нуронийлар, "Ота-оналар кенгаши", "Оқила аёллар" ҳаракати, "Бувижонлар мактаби" гуруҳи аъзоларига жиноятчиликни жиловлaш, маҳалла еттилиги аъзолари фаолиятини тўғри ташкил этиш, жиноят ўсишига шароит яратиш бераётган омилларни чуқур таҳлил қилиш, бу борадаги ишларни самарали олиб бориш, ахборот технологиялари соҳасида содир этилиши мумкин бўлган жиноятларни барвақт олдини олиш юзасидан тегишли топшириқлар берилди.

Шунингдек, давлатимиз раҳбари томонидан қарор асосида белгилаб берилган вазифаларни ҳар-бир маҳаллаларга бириктирилган масъуллар виждонан бажа-

кама йиғилишларида амалга оширилган ишлар юзасидан ахборот бериб бо-



риш, бу борада сусткашликка йўл қўймаслик зарурлигини билдириб ўтди.

Йиғилишда сўз олган «Нуроний» жамғармаси туман бўлими раиси, Халқ депутатлари туман Кенгаши депутати, туман ИИБ фахрийлар кенгаши раиси С.Қо-

нуронийлар, "Ота-оналар кенгаши", "Оқила аёллар" ҳаракати, "Бувижонлар мактаби" гуруҳлари билан биргаликда ҳамфикр бўлиб ҳамкорликда ишларни ташкил этиш зарурлигини ўқтириб, "устоз шоғирда" анъаналарига амал қилган ҳолда

ўзининг бой тажрибалари билан ўртоқлашди.

Шунингдек, аҳолининг ҳуқуқий онги, ижтимоий фаоллиги ва фуқаролик масъулиятини ошириш, жиноят содир этилишига сабаб бўлиши мумкин бўладиган ижтимоий муаммоларни ҳал этишга

жамоатчилик вакиллари, нуронийлар ва маҳалла фаолларини кенг жалб этган ҳолда маҳаллалар жамоат жойлари ва яшаб хонадонларида хавфсиз муҳит яратиш, фуқаролар ҳаёти, соғлиги ва мол-мулкига ҳар қандай тажовузларнинг олдини олиш мақсадида ҳуқуқбузарликлар профилактикасига замонавий рақамли технологиялар ва техник воситаларни кенг фойдаланиш мақсадаги мувофиқлиги ҳақида батафсил тушунтириб ўтилди.

Ўз мухбиримиз

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi do'stona munosabatlar izchil rivojlanib, strategik sheriklik darajasiga ko'tarilmoqda. Ikki xalq azaldan birdam yashab kelgan va ana shu yaqinlik mustaqillik yillarida ham qo'shnichilik va do'stlik asoslarida mustahkamlanib bormoqda. Ushbu munosabatlarni yanada mustahkamlash maqsadida chegaraoldi hududlarda va ko'p millatli mahallalarda madaniyma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Xususan, Surxondaryo viloyat Adliya boshqarmasi tomonidan Sariosiyo tumanida tojik millatiga mansub aholisi ko'pchilikni tashkil etuvchi «Bog'i Samarqand» mahallasida Navro'z bayrami katta tantana bilan nishonlandi. Tadbir davomida milliy urf-odatlar namoyish etildi, xalq o'yinlari, milliy sport turlari va turli musiqiy dasturlar taqdim etildi.

Mazkur bayramlar xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qilib, madaniy aloqalarni yanada rivojlantirishga zamin yaratmoqda. Bunday tadbirlar ikki xalqning azaliy an'analari va urf-odatlarini asrab-avaylash, yosh avlodga yetkazish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi.

Furqatjon BOBOSHAPOV,
Tuman Adliya bo'limi DXM mutaxassisi



Миллий қадриятларимизни тартиб қилиш маънавий-мағрифий тарбияни шакллантириш ва ривожлантиришда муҳим ўрин тутлади. Энг муҳими, ёш авлоднинг дунёқарашини бойитишда, азаллий қадриятларимизга ҳурмат-эҳтиром ҳиссини кучайтиришга хизмат қилади. «Аёллар сайли» ҳам ана шу йўналишдаги урф, анъаналардандир.

«Меҳр шавқат» маҳалласи ҳудудидаги «Пурафшон» гузаридида маҳалла хотин-қизлар ҳаракати фаоли Фотима Хушвақтова ташаббуси билан ўтказилган «Аёллар сайли» тадбири ҳам юқори савияда ўтди. Тарбиявий моҳияти билан диққатга сазовор сайлда ёшлар фаол қатнашиб, мағрифий кенг тушунчаларга эга бўлдилар.

Саринисо ЮСУПОВА



Бир киши тушида устозини кўриб, сўрабди:
-Сизнингча, қандай пушаймон оғирроқ?
Устози:
-Ғафлат сабаб бўлган пушаймонлик, -деб жавоб берибди.
Яна бир киши тушида Зунун Мисрийни кўради ва шундай савол берибди:
-Аллоҳ сенга нима деди?
Мисрий жавоб айтади:
-Мени ўз ҳузурда тикка тургазиб, шундай деди: «Эй ёлғончи, мени севганингни иддао қилардинг, ундай бўлса кейин нега ғафлатда ётдинг?!»
Пайғамбаримиз саллоллоҳу алайҳи васаллам:
«Энг ғазилати жиход нафе тарбияси учун қилинган жиходдир», -деб марҳамат қилганлар.
Нафс инсонни ҳар он тўғри йўлдан оздириши мумкин, шу боис у билан тинимсиз курашиш керакдир.
Нафс ва уни насвасига солувчи шайтон эса кўзга кўринмайди. Кўриниб турган душман билан олишиш кўринмаётган душман билан олишишга қараганда осонроқки, буни айтиб ўтиришнинг ҳождати ҳам йўқ. Яна, насвасачи шайтон инсонда ўзига ёрдамчи топади. Бу нафснинг ҳаёвий орзуларидир. Агар шайтон ва нафс инсонни йўлдан оздирса, у киши Аллоҳнинг азобига дучор бўлади. Айнан шу боис у билан ҳикматли сўз бор. Айтдиларки: «Кимнинг жанг майдонидан оти қочса, душманининг қўлига тушади. Кимнинг ўзидан иймони қочса, Аллоҳнинг азобига учрайди». Иймонни қочирмаслик учун Аллоҳга сийнамаиз.

Ғафлатдасан, қалбнинг адашмоқда,
Умринг ўтди, гуноҳларинг қалшмоқда.
Солиҳлардан бири тушида отасини кўради, аҳволини сўрайди ва олган жавоби шу бўлади:
-Эй ўғил, ғафлат ичида яшадик, ғафлат ичида ўлдик. Ёқуб алайҳиссалом билан ўлим ғафлатида Азроил биродарлардек учрашиб туришарди. Бир кун Азроил зийратга келганида, ораларида шундай суҳбат бўлиб ўтди.
-Ҳазрати Ёқуб:
-Эй ўлим ғафлатида, зийрат-

га келдингми ё жонимни олганими?
Ўлим ғафлатида:
-Зийратга келдим.
Ҳазрати Ёқуб:
-Сендан бир талабим бор.
Ўлим ғафлатида:
-Нима экан у?
Ҳазрати Ёқуб:
-Ажалим яқинлашиб, жонимни олмоқчи бўлганингизда менга сал олдинроқ хабар берсанг...

Ўлим ғафлатида:
-Жуда сох. Сенга икки ё уч хабарчи юбораман.

Бу суҳбатдан бирмунча вақт ўтгач, ҳазрати Ёқубнинг ажали яқинлашди. Ўлим ғафлатида яна келди.

Ҳазрати Ёқуб сўради:
-Зийрат мақсадида келдингми ё жонимни олганими?
Ўлим ғафлатида:
-Жонингни олгани!
Ҳазрати Ёқуб:
-Ахир, сен менга олдиндан хабар бермоқчи эдинг-ку?! Икки ё уч хабарчи юбораман, дегандинг... Қани хабар берганинг?

Деди:
-Йўқ, дунёдан кўчаётганимга эмас, намозимни мазмунсиз ўтказганимга йиллайман.

Дедим:
-Яъни қандай? Сиз намозингизни тўла-тўқис адо этардингиз-ку?!

Деди:
-Ҳа, тўқис намоз ўқирдим. Фақат бугунгача доим ғафлатда сажда қилдим, ғафлатда саждадан бошимни кўтардим. Мана энди ғафлатда ўлдиман.

Пайғамбаримиз саллоллоҳу алайҳи васалламдан нақл этилган бир хабар шундайди:
-Арида шу шаклда сўз бор: «Мен (Аллоҳ) менга итоат этганининг истакларини бераман, ишини йўлга қўяман. Мени севганини севаман. Мени қақирганга жавоб бераман. Афв тилаганга афв этаман».

Ақлли мусулмон Аллоҳдан кўрқди, унга итоат этди. Ибодатларини ёлғиз Аллоҳ учун қилди. Унинг ҳукмига ва тақдирига рози бўлди. Бошига тушган мусибатларга сабр қилади.

Аллоҳга ибодат эт.

Бир одамнинг қони йўқолади, кимга берганини ҳеч эслаб қолмайди. Бир кун намоз ўқитганда қони қимдлиги эсига тушиб қолади. Намозни битирганда қулига қараб бақиради:
ҳой, фалон кишиникига бор, қонимизни сўра!

Кул:
-Қон ундалигини қачон эсладингиз?
Ҳожа:
-Намозда!

Кул:
-У ҳолда сиз ибодат қилмай, қон қидирибсиз!.. Қулнинг бу гўзал танбехи ва тўғри эътиқоди туфайли ҳожаи уни озод этди. Ақли бор одам қалбини дунёга эмас, Аллоҳга беради.

Оқибатни ўйлайди ва охирагача ҳозирлик кўради. Шунинг учун ҳам Раббимиз буоради:
«Ким охирагача экиннинг истар экан, биз унга экиннинг ҳосилини мўл-зиёда қилурмиз. Ким дунё экиннинг истар экан, биз унга ўшандан (дунё матолари-дан) берурмиз ва унинг учун охирагача бирон насиба бўлмас!» (Шуро сураси, 20-оят).

Мол-мулкига муқкасида кетган инсоннинг қалбида Аллоҳ севгисини ва охирагача қайғусини бўлмайди. ҳазрати Абу Бакр Аллоҳ ундан рози бўлсин!-қалбидаги Аллоҳ севгисига халал бермасин учун мол-мулкидан қирқ минг динорини яширинча, қирқ минг динорини ошқора садақага берганди. Шундайки, охирида ўзи ҳеч нимасиз қолганда севиқли Пайғамбаримиз саллоллоҳу алайҳи васаллам ҳамда ул зотнинг оила аъзолари дунё севгисидан ва дунёга берилишдан (топилишдан) қатъиян сақланишарди, қалбларида ёлғиз Аллоҳнинг муҳаббати ҳукмрон эди. Ана шу сабабларга кўра Аллоҳнинг Расули Пайғамбаримиз саллоллоҳу алайҳи васаллам Фотима онамизни турмушга чиқарганларидан сеп сифатида фақатгина ошланган бир кўчқор нўстаги ила ичида ҳурмо дарахти пўстлогининг тозалари бўлган бир ёстиқ совға қилгандилар, холос.

Б.МИРЗОЕВ,
«Эшонқулқонбобо» жомеъ масжиди имом-хатиби
(Абу Ҳамид Ғаззолийнинг «Мукошафат-ул қулуб» асаридан)

ҒАФЛАТ

Ўлим ғафлатида:
-Мен айтганимни қилдим:
1.Соҳларинг олдин қора эди, оқарди. 2.Вужудинг олдин кучли эди, кейин қувватдан қолди. 3.Қалбинг олдин тик эди, энди бўқилди. Эй, Ёқуб, мана санга уч нарсас, ўлимдан олдин инсонларга менинг юборган хабарчиларимдир.

Ойи йиллар ўтади, гуноҳларинг ортади,
Қалб Азроил келганда ғафлат босиб ётади.

Дунёдаги неъматларинг-кибру надомат,
Мангу қолмоққа дунёда йўқ имконият.

Абу Али Даққоқ ҳикоя қилади:
-Бир солиҳ зот бор эди. Замоначининг буюк олими эди. Бир пайт хасталанди. Кўргани бордим. Атрофида талабалари ўтирган эди. У зот эса йиллар эди.
Дедим:
-Эй устод, нега йиллайсиз? Дунёдан кўчганимдан дебми?

Эришган неъматларининг шукрини қилади. Аллоҳнинг берганига қаноат этди. ҳаром ва гайриқонуний йўл билан топишган фойдаларга илтифот қилмайди. Аллоҳ таоло қудсий ҳадисда буорадики:

«Ким Менинг ҳукмига ва тақдиримга рози бўлмаса, балоларга сабр қилмаса, неъматларимга шукрона билдирмаса ва берганимга қаноат қилмаса, у ўзига Мендан бошқа Аллоҳ топиб олсин!»

Бир киши Ҳасан Басрийга:
-Мен Аллоҳ йўлида бўлишдан завқ олмайман!-деганида, Ҳасан Басрий:
-Эҳтимол, сен ўзида Аллоҳ кўркуви бўлмаган бир одамнинг юзига қараган бўлсанг керак, -деб жавоб берган экан.

Бошқа бир киши айни сўроқни Боязид Бастомийга берганида, мана бу жавобни олган эди:
-Сен Аллоҳга эмас, итоатга ибодат қиласан. Ибодатдан завқ олмоқчи бўлсанг, итоатга эмас,

шувиға асосан турар-жой мулкдорининг ташаббусига кўра турар-жойга мажбурий тартибда киритилаётган тарафни турар-жой мулкдорига тегишли мутаносиб шароитларга эга бўлган бошқа турар-жой киритиш ёки ижарага олинган турар-жой учун ижара ҳақини тўлаш мажбуриятини мулкдорнинг зиммасига юклатиши мумкинлиги белгиланди.
Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга кирилади.

JSSTning 2007 yil may oyda bo'lib o'tgan 60-sessiyasi qaroriga ko'ra, dunyo bo'yicha har yili 25 aprel - Butun Jahon bezgakka qarshi kurash kuni sifatida nishonlanadi.

BEZGAK - XAVFLI KASALLIK

Bezgakka qarshi kurash bu barcha mamlakatlarda bezgakka qarshi samarali kurashni ta'minlash bo'yicha global harakatni targ'ib etish bilan birga, aholini bezgakning yuqish yo'llari mexanizmi, kasallik asoratlari, o'z o'zini himoya qilish usullari bilan tanishtirishga bag'ishlanadi.

Bezgak har doim o'lim xavfi yuqori bo'lgan kasallik hisoblanadi va shunday bo'lib qoladi, har yili minglab kishilar, shu jumladan tropik va subtropik mamlakatlarga borib kelganlar, ushbu kasallik bilan zararlanadi. JSSTning bezgak bo'yicha butunjahon ma'ruzasiga ko'ra, dunyoda bezgak kasalligiga chalinish holatlari oshmoqda. Bu haqda Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining yangi hisoboti darak bermoqda.

Unga ko'ra, o'tgan yili dunyo bo'yicha bezgakka chalinganlar soni 263 million nafarni tashkil etgan. Ekspertlar ushbu ko'rsatkich 2022 yilga nisbatan 11 million nafarga ortganidan xavotirda. Shuningdek, bemorlardan 597 ming nafari hayotdan ko'z yumgan. Vafot etganlarning katta qismi 5 yoshgacha bo'lgan bolalardir. Epidemiyadan asosan Afrika mintaqasi aholisi aziyat chekmoqda.

Bezgak - parazitlar tropik kasallik bo'lib, isitma hurujlari, kamqonlik jigar va taloqning kattalashishi bilan kechadi. Odamlar orasida bezgak kasalligining 5 ta turi: tropik, uch kunlik, to'rt kunlik, ovale-bezgak va yana Shimoliy Sharqiy Osiyo davlatlarida Plasmodium knowlesi, maymunlarda bezgak kasalligi keltiradigan turi uchraydi. Tropik bezgak eng og'ir kechadigan va ko'pincha o'lim bilan tugaydigan tur hisoblanadi.

Bezgak bemor odamdan sog'lom odamga zararlangan urg'ochi chivin chaqishi, tibbiy muolajalar qilish (mushak ichi va tomirga zararlangan shprints bilan in'ektsiya qilish, zararlangan qonni quyish) orqali hamda vertikal yo'l bilan - bezgak bilan og'rigan ayolning tug'ruq vaqtida bo'lajak bolasiga yuqtirishi orqali yuqadi.

Turli ko'rinishdagi bezgakning erta namoyon bo'lishi deyarli bir biringan farq qilmaydi. Kasallikning boshlang'ich belgilari boshqa bakterial va virusli kasalliklar (O'RV, bronxit, pnevmoniya, gepatit va boshqalar)ga o'xshab kechadi. Kasallikning boshida tana haroratini ko'tarilish, qaltirash, bosh og'rig'i, holsizlik, mushaklarda og'riq, ko'ngil aynashi, tomoqda og'riq, jigar va taloqning kattalashishi kuzatiladi.

Bezgakning 3 ta turi (uch kunlik, to'rt kunlik va ovale-bezgak) yengil kechuvchi kasallik hisoblanib, deyarli o'lim holatlari kuzatilmaydi, tropik bezgakda esa kech va noto'g'ri davolanganda og'ir asoratlarni keltirib chiqaradi va o'lim bilan tugaydi.

Bezgak parazitlari bemor odam qonida bo'lib, faqatgina qon tahlillari mikroskopda tekshirilgandagina aniqlanishi mumkin.

Bezgak tashuvchi chivinlar Anopheles turiga mansub bo'lib, turib qolgan yoki sekin oquvchi toza suv havzasida ko'payadi. Boshqa turdagi chivinlarda farqli ravishda yuzaga o'tirganda - shift (devor)ga qo'nganda qorinchasi 450burchakda joylashadi. O'zbekistonda bezgak chivinlarining 7ta turi tarqalgan bo'lib, ulardan 3tasi bezgakning faol tashuvchilari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi 2018 yil JSSTning mahalliy bezgakdan holi davlat sertifikatini olgan. Biroq, hozirgi vaqtda respublika xududida aholini migratsiyasi kuchayganligi va bezgakning boshqa davlatlardan keltirilishi (turistlar, xorijiy talabalar biznesmenlar va b. orqali), mamlakatimizning barcha xududlarida kasallik tashuvchilarining mavjudligi, iqlim o'zgarishlari, bezgak chivinlarining inteksitsidlariga barqarorligi sababli bezgakni tarqalishi xavfi saqlanib qolmoqda.

Bezgak bo'yicha endemik davlatlardan kelgan davlatimiz fuqarolari va chet el fuqarolari (sportchilar, xorijiy talabalar, turistlar, biznesmenlar) orqali bezgak kasalligi chetdan

kirib kelishi mumkin.

Mamlakatimizda bezgak bo'yicha erishilgan barqarorlikni saqlab qolish uchun 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida bezgakni qayta tiklanishini oldini olish Milliy dasturiga muvofiq (O'zR SSVning 22.08.2017 yildagi 473-sonli buyrug'i asosida) kompleks chora - tadbirlarini, tegishli vazirlik va idoralar qo'llab quvvatlashi yordamida davom ettirish zarur.

Chet elga ketuvchilar quyidagilarni esda tutishi zarur:

- chet elga ketish uchun davlatni tanlaganingizda, sayohatni tashkil etuvchi turistik firmalardan ushbu mamlakatlarda bezgak kasalligi xavfi bor - yo'qligi to'g'risida ma'lumot oling;

- maxsus kimyoprofilaktika uchun dori preparatlari va ularni qabul qilish sxemasi to'g'risida vrachdan maslahat oling;

- bezgak tarqalgan davlatga borganingizda, repellentlardan (chivinlarni cho'chituvchi moddalar) foydalaning, ularni tananing ochiq joylariga, kiyimlaringizga seping; oyna va eshiklarni to'r yoki doka bilan berkiting; xonaga aerozol ko'rinishdagi insektsidlar bilan ishlov bering.

Shuni yodda tutish zarur, bezgak bilan ancha kech muddatda ham kasallanish mumkin, hattoki kimyoprofilaktika o'tkazilgan holda ham. Shuning uchun, isitma bilan kechuvchi har qanday kasallik holatlarida, tropik iqlimli davlatlardan kelgan bo'lsangiz, 3 yil davomida isitmangiz ko'tarilsa, albatta poliklinikaga murojaat qilib, bezgakka laborator tekshiruvdan o'ting.

Chetga boruvchi fuqarolarimizga eslatma tariqasida bezgak kasalligi endemik bo'lgan mamlakatlarni ro'yxatini taqdim etamiz:

Afrika davlatining Angola, Benin, Burundi, Burkina Fasso, Gabon, Gambia Gana, Gvineya, Gvineya-Bisau, Jibuti, Zambiya, DRC, Kamerun, Kongo, Keniya, Komor orollari, Liberiya, Mavritaniya, Madagaskar, Malavi, Mali, Mayotte, Mozambik, Nivangeriya, Nivangeriya Prinsipi, Senegal, Somali, Sudan, Janubiy Sudan, Syerra-Leone, Tanzaniya, Togo, Uganda, Markaziy Afrika Respublikasi, Chad, Esvatini, Eq. Gvineya, Eritreya, Efiopiya hamma



joyida; Botsvana, Misr, Zimbabve, Kabo-Verde, Marokash, Namibiya, Janubiy Afrika ba'zi hududlarda bezgak infeksiyasi xavfi.

Osiyo va Evropada: Bangladesh, Butan, Bruney, Vetnam, Hindiston, Indoneziya, Yaman, Kambodja, Laos, Nepal, Ummon, Pokiston, Timor-Sharqiy, Filippinning hamma joyida uchraydi.

Afg'oniston, Tailand, Eron, Iroq, Xitoy, Shimoliy Koreya, Janubiy Koreya, Malayziya, Myanma, Saudiya Arabistoni, Gretsiya, Suriya, Ozarbayjon, Tojikiston ba'zi hududlarda bezgak infeksiyasi xavfi bor.

Okeaniada: Vanuatu, Papua-Yangi Gvineya, Solomon orollari hamma joyida.

Amerika: Beliz, Boliviya, Braziliya, Venesuela, Gaiti, Gayana, Frantsiya Gvianasi, Gonduras, Dominikan Respublikasi, Kostarika, Kolumbiya, Nikaragua hamma joyda; Gvatemala, Meksika, Panama, Peru, Surinam, Ekvador, Salvador ba'zi hududlarda bezgak infeksiyasi xavfi bor.

D.R.SHUKUROV,

Sariosiyo tuman sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi parazitlar kasalliklar bo'limi va laboratoriyasi mudiri

Энди зўравонликка учраган аёлнинг ажрашиши учун муҳлат тайинланмайди

Энди Ўзбекистонда оилавий зўравонликдан ажралган шахс талабига кўра никоҳдан ажрашганда муҳлат тайинланмайди. Бу 9 апрель кuni қабул қилинган «Оила ва хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш тизими такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгартiriшлар киритиш тўғрисида»ги қонунда белгиланди.

Янги қонун билан айрим қонун ҳуж-

жатларига қўшимча ва ўзгартiriшлар киритилди. Оила кодексига киритилган қўшимчага кўра, никоҳдан ажратиш тўғрисидаги ишлар қўриб чиқилаётганда суд оилавий (маиший) зўравонликдан ажралган шахснинг талабига кўра ярашиш учун муҳлат тайинламайди.

Бундан ташқари, Уй-жой кодексига киритилган қўшимчага кўра, турар жойдан фойдаланиш ҳақидаги низолар қўриб чиқилаётганда, суд тарафларининг кели-

MUASSISLAR:
Xalq deputatlari
Sariosiyo tuman
Kengashi va
tuman hokimligi

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Matbuot va Axborot Agentligi
Surxondaryo viloyat hududiy
boshqarmasi tomonidan 2012 yil
31 iyulda № 11-053 raqam bilan
ro'yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:
AZIZOV ABBOS RAJABALIYEVICH
Tel: (+99897) 350-78-89
Tahririyat manzili: S.Sheroziy mahallasi,
Matbuotchilar ko'chasi 7-uy.
E-Mail: Sariosiyo@gmail.uz

Gazeta «SariOsiyo»
tahririyati kompyuter markazida
terildi va sahifalandi.
Tojik sahifasi mas'uli: Solehjon RAJABOV
Gazeta sahifalovchisi va dizayner
Nodirbek DAVLATOV

Gazeta «Surxon tongi» va «Zarya Surxana»
gazetalari tahririyati bosmaxonasida
A-2 hajmda 2 bosma taboqda 3000 nusxada
chop etildi. Buyurtma № _____
Topshirish vaqti 16⁰⁰, topshirildi 16⁰⁰da.
Bosmaxona manzili: Termiz shahri,
Shukrona ko'chasi, 21-A uy.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz qilin-
maydi va muallifga
qaytarilmaydi. Muallif
fikri tahririyat nuqtai
nazaridan farqlanishi
mumkin.